

CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING XORIJDAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR

Madina Hamidova

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili fakulteti,
2-kurs 2014-guruh talabasi*

Nafisa Baxshilloeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili fakulteti,
2-kurs 2014-guruh talabasi*

Supervisor: Dilrabo Akhmedjanova

Bugungi kunda chet tillarini o'qitishda va deyarli hamma sohani o'qitishda onlayn ta'limdan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Onlayn ta'lim nima o'zi? Onlayn ta'lim bu masofadan turib virtual mobil telefon, kompyuter va shunga o'xshash axborot almashinuvchi qurilmalar yordamida o'qitish tizimidir. Onlayn ta'limdan foydalanish asosan 2019-yildan keng tarqaldi, ommalashdi. Bunga sabab COVID-19 virusi va epidemiologik vaziyatda insonlar karantinda uylarida o'tirishga majbur bo'lib qolganliklaridir. Bu vaziyatda dunyo mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlari nafaqat chet davlatlardan, dunyoning turli xil tarafidan kelib ta'lim oladigan o'quvchilari uchun, balki mahalliy o'quvchilari uchun ham ta'lim tizimini onlayn ta'lim sistemasiga o'zgartirishga majbur bo'ldi. Bizning davlatda ham oliy ta'lim onlayn ta'lim sistemasiga o'zgartirildi. 2019-yildan oldin ham ko'plab rivojlangan xorijiy mamlakatlarda onlayn ta'limdan foydalanilar edi. Covid-19 sababli desa ham bo'ladi, onlayn ta'lim dunyo davlatlari orasida anchagina ommalashdi, buning o'ziga yarasha sabablari bor. Onlayn ta'limning o'ziga yarasha foydali va zararli tomonlari bor. Juda ko'plab xorijiy mamlakatlarda, xorijiy oliygohlarda chet tillarini o'qitishda onlayn ta'limning foydali tomonlari ko'p ekanligi tajribada sinalgan va qayd etilgan. Misol uchun: Germaniyada masofadan turib o'qish uchun talabalar quyidagi mutaxassisliklarni afzal ko'rishadi: 1)qonuniy, 2)axborot;3)tibbiy;4)elektrotexnika.

Ko'p sonli universitetlar orasida boy ma'lumot bazasi va elektron ta'lim sohasida 25 yillik tajribaga ega bo'lgan Xagendagi Masofaviy ta'lim institutini alohida ta'kidlash kerak. Ispaniya, abituriyentlarni ko'p sonli gumanitar va texnik mutaxassisliklar bilan ta'minlashdan tashqari, talabaning joylashgan joyidan qat'i nazar, yuqori darajadagi fikr-mulohazalarga ega. 20 yillik tajribani to'plagan Ispaniya talabalarga bilimlarni uzatishning zamonaviy usullaridan foydalangan holda sifatli ta'limni taklif qilishga tayyor. Ispaniya universitetlarining asosiy e'tibori o'quv jarayonida mavjud dasturiy ta'minotdan foydalanishga qaratilgan: Linux, Moodle, Open Office, Google Docs va

boshqalar. Fransiya elektron ta'limni rivojlantirish intensivligi bo'yicha Yevropada 3-o'rinni egallagan, abituriyentlarni axborot bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratayotgan davlatdir. So'nggi paytlarda o'quv dasturlariga ingliz tilidagi o'quv kurslari faol kiritildi.

Ta'lim axborot texnologiyalarini ta'lim va interaktiv televideniya amaliy qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, trening davomida talabalarga turli taqdimotlar, videokasetalar, videoroliklar yuboriladi. Elektron ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha Evropaning eng ilg'or davlatlaridan biri Finlyandiya. Finlyandiya ariza beruvchilarga nimani taklif qilishi mumkin? Mutaxassislar keng doirasi, yuqori sifatli video va audio eshittirish. O'quv dasturlarini ishlab chiqishning eng zamonaviy usullarini qo'llash, talabalarni baholash, axborotni uzatish, masalan, videokonferentsaloqa orqali. Xorijiy tillarni o'qitishda xorijda onlayn ta'lim juda qo'l kelmoqda, birinchidan, talaba o'rganayotgan tilini o'z ona tili sifatida so'zlashadigan native speakerlar bilan onlayn suhbatlashib, ular bilan darslarni o'tishi mumkin, bunda talaba native speaker talaffuzini his eta oladi va oson o'zlashtira oladi, ikkinchidan agar universitet faqat offlayn ta'lim bersa kam sonli o'quvchilarni qamrab ololadi, xolos, onlayn ta'lim universitet uchun auditoriya, xona masalalarini hal qilishda qo'l keladi, uchinchidan, bir vaqtning o'zida masofali ta'lim orqali talaba ikkita universitetda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, tanganing ikkinchi tomoni ham bor, onlayn ta'limning salbiy taraflari ham yo'q emas. Evropa va AQSh dagi universitetlarga kirishda o'quvchidan dastavval ingliz tilini bilish darajasini so'raladi va ko'plab universitetlarda sohaga oid o'quvchining qo'lga kiritgan turli xil muvaffaqiyatli ishlarini talab qiladi. AQSH va Yevropa ning bazibir nufuzli universitetlarida onlayn ta'lim olish narxi ham juda qimmat hisoblanadi. AQSH va Yevropa nufuzli universitetlarida masofaviy ta'lim olish uchun to'lanadigan pulga Rossiyada kunduzgi ta'limda ham o'qish mumkin. Eng katta muammolardan biri bu onlayn ta'limda o'qiydigan o'quvchilarning dars qilish uchun juda kam vaqt ajratib, anchayin erkin bo'lib qolishlari va buning natijasida oraliq imtihonlardan o'tolmay, universitetdan haydalanish yoki juda past bilimga ega bo'lib bitirish holatlari kuzatiladi. Bunga fakt: Buyuk Britaniyada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2020 yil o'quvchilar atigi 2.5 soat vaqtini dars qilishga sarflagan, qolgan vaqtda ular ijtimoiy tarmoqlarda videoo'yinlar o'ynashgan. Yana bir muammolardan biri bu nigiron talabalar uchun masofaviy ta'lim juda qiyindir. Nogironligi bor talabalar uchun an'anaviy ta'lim ma'qul. Birinchidan, an'anaviy ta'lim nogironligi bor talabalarga eng kerakli vositani-muloqotni taqdim etadi. Ikkinchidan, nogironligi bor o'quvchi va talabalar sifatli ta'lim olishi uchun moddiy-texnik baza juda qimmat. Hamma sohada ham onlayn ta'lim tizimini qo'llab bo'lmaydi, tibbiyot va laboratoriyada amaliyot va ish olib boriladigan sohalarda umuman iloji yo'q masofaviy ta'limning. Masofaviy ta'limda dunyoning turli xil burchaklaridagi talabalar ishtirok etgani uchun hamma talabada ham internet tezligi yaxshi bo'lmaydi, bu talabaning darslarni yaxshi kuzata olmasligiga sabab bo'ladi. Chet

tillarini o'rganishda ko'proq o'rganilayotgan tilda talabalar bilan suhbat va bahs-munozaralarga e'tibor qaratilishini inobatga oladigan bo'lsak, onlayn ta'limda talabaning onlayn bo'layotgan debat, munozaralarga uyalish oqibatida yaxshi qo'shilib ketolmasligi mumkin, o'qituvchi ham hammani birdek suhbatga hamma qo'shilyaptimi, yo'qmi, hamma o'zining fikrini bildiolyaptimi, yo'qmi kuzatolmaydi. An'anaviy darslar talabadagi gapirayotgandagi his-hayajonni yo'qotishga yordam beradi, talabada auditoriya nutqini shakllantiradi, ko'pchilik oldida tutilmay ravon gapira olishni shakllantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, onlayn ta'limning o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklari kuzatilgan, xuddi shu kamchiliklarini inobatga olib yutuqli jihatlaridan unumli foydalangan holda yurtimizda ham masofaviy ta'limni rivojlantirishimiz kerak. Xorijiy tillarni o'rganishda onlayn ta'limning afzallik xususiyatlarini aynan mamlakatimiz ta'lim tizimiga ham joriy etishimiz kerak. Shaxsiy fikrim esa shundayki, mas'uliyat, tartib bor tizimda onlayn ta'lim ham, an'anaviy ta'lim ham o'z maqsadiga erisha oladi. Xorij mamlakatlarining nufuzli universitetlaridagi onlayn ta'lim sifati hamda shu ta'lim tizimi orqali erishilgan yutuqlar so'zinning isbotidir. Har bir zamonning ta'lim sohasiga beradigan yangiligi bo'ladi. Biz yashab turgan zamon esa ta'lim sohasiga aynan onlayn tizimni yangilik sifatida kiritdi. Bundan qay yo'sinda foydalanish ilm oluvchi va beruvchining qo'lida. Zero, har qanday sharoitda ham shaxsiy rivojlanishga erishish mumkinligini bir necha bor isbotlanganiga guvoh bo'lganmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

<https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-qitishda-onlayn-ta-limning-yutuq-va-muammolari>,

"Ta'limda tillarni o'qitish: muammo va yechimlar"

<https://akadmvd.uz/oz/news/talimda-tillarni-oqitish-muammo-va-yechimlar>,

"CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING YUTUQ VA MUAMMOLARI | Journal of new century innovations"

<http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/2367>